



Madina MO'MINOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
E-mail: muminovamadina@mail.ru

DSc, professor B.Qurbonova taqrizi asosida

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING RAQAMLI MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Raqamli mediakompetentlik bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bo'lajak o'qituvchilar uchun ushbu kompetentlikni rivojlantirish nafaqat ularning professional salohiyatini oshiradi, balki o'quvchilarning mediama'lumotli va texnologik savodxon shaxslar sifatida shakllanishiga ham hissa qo'shadi. Biroq, raqamli mediakompetentlikni rivojlantirish jarayonida bir qator pedagogik muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolarni hal qilishning samarali yechimlarini ishlab chiqish bugungi ta'limning dolzarb masalalaridan biridir.

Kalit so'zlar: Raqamli mediakompetentlik, aksiologik yondashuv, media savodxonlik, texnologiyalarning ta'limga ta'siri, tanqidiy fikrlash, interaktiv o'qitish metodlari, malaka oshirish dasturlari, virtual ta'lim platformalari, loyiha asosidagi ta'lim.

PEDAGOGICAL APPROACHES TO DEVELOPING DIGITAL MEDIA COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Annotation

Today, digital media competence is becoming an integral part of the modern education system. The development of this competence for future teachers not only increases their professional potential, but also contributes to the formation of students as media literate and technologically literate individuals. However, a number of pedagogical problems arise in the process of developing digital media competence. Development of effective solutions to these problems is one of the urgent issues of today's education.

Key words: Digital media competence, axiological approach, media literacy, impact of technologies on education, critical thinking, interactive teaching methods, professional development programs, virtual learning platforms, project-based learning.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ЦИФРОВОЙ МЕДИЙНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

Сегодня цифровые медиакомпетенции становятся неотъемлемой частью современной системы образования. Развитие данной компетенции у будущих учителей не только повышает их профессиональный потенциал, но и способствует формированию у студентов как медиаграмотных и технологически грамотных личностей. Однако в процессе развития цифровой медиакомпетенции возникает ряд педагогических проблем. Разработка эффективных решений этих проблем является одной из актуальных задач современного образования.

Ключевые слова: Цифровая медиакомпетентность, аксиологический подход, медиаграмотность, влияние технологий на образование, критическое мышление, интерактивные методы обучения, программы повышения квалификации, виртуальные учебные платформы, проектное обучение.

Kirish. Raqamli mediakompetentlik ta'lim sohasidagi yangi talablarga javob beradigan, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikmadir. Ta'lim jarayonida texnologiyalarning o'rni ortishi bilan, bo'lajak o'qituvchilar uchun nafaqat texnik vositalardan, balki raqamli mediadan foydalanishni ham tushunish va baholash zarurati ortmoqda. Raqamli mediakompetentlikni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar, masalan, loyiha asosida o'qitish, o'qituvchilarni raqamli platformalar bilan tanishtirish, ularning ta'limda samarali qo'llanilishini ta'minlash muhimdir. Raqamli mediakompetentlik zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Bugungi kunda o'qituvchilar nafaqat texnologiyalarni samarali qo'llay olish, balki media kontentini tushunish va tanqidiy baholash kabi qobiliyatlarga ega bo'lishlari zarur[1]. Raqamli mediakompetentlikning rivojlanishi nafaqat bo'lajak o'qituvchilarning professional faoliyatini, balki o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini ham sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradi.

Metodlar. Tadqiqotning metodik asosi sifat va miqdoriy tadqiqotlar bo'lib, ular o'qituvchilarni raqamli mediakompetentlikni rivojlantirishning samarali yo'llarini aniqlashga qaratilgan. Miqdoriy tadqiqot esa anketalar va so'rovnomalarda yordamida amalga oshirildi. Tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarni ta'limda yangi texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish, ularning raqamli mediakompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan treninglar tashkil etildi. Ushbu tadqiqotda sifatli va miqdoriy metodlarning uyg'un kombinatsiyasi ishlatildi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning raqamli mediakompetentligini aniqlash va uni rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik yechimlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodlari quyidagicha bo'ldi:

1. Sifatli tadqiqot: O'qituvchilar va ta'lim mutaxassislari bilan chuqur muloqotlar o'tkazildi, bu esa raqamli mediakompetentlikka oid kengroq tasavvur hosil qilish imkonini berdi.

2. Miqdoriy tadqiqot: Anketalar va so'rovnomalarda yordamida bo'lajak o'qituvchilar orasida raqamli mediakompetentlik darajasi o'rganildi, ular orasida mavjud bo'lgan bilim va ko'nikmalar tahlil qilindi.

3. Eksperiment: Treninglar va amaliy mashg'ulotlar va onlayn kurs orqali raqamli mediakompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan usullarni sinovdan o'tkazish, bo'lajak o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun eng samarali metodlarni aniqlashga yordam berdi.

Natijalar. Tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning raqamli mediakompetentligi bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar shuni ko'rsatdiki, maxsus onlayn kurslar va innovatsion o'qitish metodlari ularning pedagogik yondashuvlarini sezilarli darajada o'zgartiradi. Interaktiv ta'lim vositalari va masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy jihatlarni ko'rsatdi:

1. Maxsus onlayn kurs dasturlarining samaradorligi: Raqamli texnologiyalar bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarga

o'tkazilgan treninglar, seminarlar va onlayn kurslar ularning raqamli mediakompetentligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Bo'lajak o'qituvchilar bu treninglar orqali texnologik vositalar va ta'lim platformalaridan qanday qilib samarali foydalanish bo'yicha amaliy bilimlar olishadi.

2. Raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari: Virtual platformalar (Zoom, Google Classroom) va interaktiv ta'lim usullari raqamli mediakompetentlikni shakllantirishda Bo'lajak o'qituvchilar raqamli mediakompetentlikni egallashi uchun kasbiy faoliyati davomida quyidagicha yondashish zarur. (1-jadval)

Aksiologik yondashuv asosida raqamli mediakompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi		
1	Axborot va media savodxonligini egallash	Bo'lajak o'qituvchilar raqamli materiallarni izlash, baholash va tanlash qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Bu, axborot manbalarining ishonchligini aniqlash va tanqidiy tahlil qilishni o'z ichiga oladi.
2	Raqamli mediaga etik va axloqiy mas'uliyat bilan yondashish.	Raqamli muhitda axloqiy qoidalarni bilish va ularga rioya qilish, mas'uliyatli kontent yaratish va tarqatish.
3	Ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni yetkazib bara olish.	Bo'lajak o'qituvchilar raqamli media orqali ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni yetkazish va o'quvchilarga ularni tushunishga yordam berish.
4.	Interaktiv va kreativ o'qitish metodlaridan foydalanish.	Raqamli vositalardan foydalanib, interaktiv va kreativ darslar o'tkazish, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash.
5	Innovatsion texnologiyalarni qo'llash	Yangi raqamli texnologiyalarni o'z pedagogik faoliyatida samarali qo'llash, o'quv jarayonini innovatsion g'oyalari bilan boyitish.
6	O'z-o'zini rivojlantirish	Raqamli media sohasidagi yangiliklardan xabardor bo'lish va o'z bilimlarini doimiy ravishda yangilab borish.

1-jadval. Aksiologik yondashuv asosida raqamli mediakompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi

Munozara. Raqamli mediakompetentlik bo'yicha metodik usullar va texnologiyalarni o'qituvchilarga taqdim etish, ularni nafaqat raqamli vositalardan, balki ularni ta'limda samarali qo'llashga ham o'rgatadi. Ta'limda texnologiyalarni qo'llash orqali bo'lajak o'qituvchilar zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amalga oshirib, o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga erishadilar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning raqamli mediakompetentligini rivojlantirishda texnologik yondashuv va pedagogik usullarning uyg'unlashuvi muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli mediakompetentlikni rivojlantirishda integratsiyalashgan o'qitish usullari, masalan, loyiha asosidagi o'qitish va interaktiv metodlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.[3] Bunday pedagogik yondashuvlar orqali bo'lajak o'qituvchilar nafaqat o'quvchilarga texnologiyalardan foydalanishni o'rgatadilar, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy kompetentliklarini ham rivojlantiradilar. Raqamli vositalardan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarga yangicha yondashuvlar taqdim etadi va ularni XXI asr talablariga javob bera olish uchun tayyorlaydi. Bundan tashqari, ta'lim jarayonida texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarni muntazam onlayn kurslari orqali tayyorlash zarur.

Xulosa. Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli mediakompetentlikka o'rgatish ta'lim sifatini oshiradi va

muhim ro'l o'ynaydi. Ushbu vositalar bo'lajak o'qituvchilarga o'quv jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qilish imkoniyatini beradi.

3. Innovatsion metodikalar: Loyiha asosidagi o'qitish va masofaviy ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda katta yordam beradi[2]. Bu metodlar orqali bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni o'rgatib, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirdilar.

Bo'lajak o'qituvchilar raqamli mediakompetentlikni egallashi uchun kasbiy faoliyati davomida quyidagicha yondashish zarur. (1-jadval)

o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini samarali qiladi. O'qituvchilarning raqamli va mediakompetentligini rivojlantirish uchun innovatsion ta'lim metodlari va texnologiyalardan foydalanish zarur. Kelajakda ushbu kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli tadqiqotlarni o'tkazish, pedagogik jarayonni yanada samarali qilish uchun muhim hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarda raqamli mediakompetentlikni rivojlantirish nafaqat o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshiradi, balki o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Raqamli mediakompetentlikni rivojlantirish bo'yicha quyidagi asosiy tadbirlar amalga oshirilishi zarur.

- Interaktiv va loyiha asosida o'qitish usullarini joriy etish,

- Raqamli vositalardan foydalanishni o'rgatish,
- Muntazam ravishda onlayn kurs dasturlarini tashkil etish.

Ushbu yo'nalishda kelgusida texnologiyalarning ta'limdagi qo'llanilishi va samaradorligi bo'yicha kengaytirilgan tadqiqotlar o'tkazilishi tavsiya etiladi. Raqamli mediakompetentlikni rivojlantirishning ilg'or metodlarini o'rganish va joriy etish, o'qituvchilarning malakasini yanada oshirishga va ta'lim sifatini yuqori darajaga ko'tarishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ferrari, A. (2013). DIGCOMP: A Framework for Developing and Understanding Digital Competence in Europe. European Commission.
2. Thomas, J. W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning. Autodesk Foundation.
3. OECD (2019). Trends Shaping Education 2019. OECD Publishing.
4. Gonzalez, C. (2018). Teacher Training and Professional Development in the Digital Era. Springer.